

О'TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” ASARIDA QO'LLANILGAN SO'Z BIRIKMALARINING BOG'LANISH USULI VA OMILIGA KO'RA TAHLILI

Jo'rayeva Mehriniso

TerDU, o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'. Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asari tarkibida so'z birikmalari hosil bo'lishida muhim sanalgan bog'lanish usullari va omillari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, asar tarkibidagi birikmalar asosida fikrlar dalillangan.

KALIT SO'ZLAR: “Bahor qaytmaydi”, bitishuv, moslashuv, boshqaruv, ma'noviy omil, shakliy omil, joylashuv omil, erkin va jipslashuv, a'zolar munosabati.

So'z birikmasi elementlari orasidagi bog'lanish, ya'ni tobelanish uch xil amalga oshiriladi. Bular: bitishuv, moslashuv, boshqaruv. Bu aloqa turining o'ziga xos xususiyati va farqi a'zolar tarkibida keluvchi ko'rsatkichlardan kelib chiqadi. Masalan, *telba to'lqinlar, yo'ldan bormoq, tuflining bog'ichi* birikmalarida tobe so'zning qaysi shaklda kelishi ko'pincha, uning hokim so'ziga bog'liq bo'lsa, ba'zan har ikkala a'zo ham bir-birining qay shaklda kelishini talab qiladi. Masalan: “*Anvar do'stining bo'g'iq ovozidan uning xafa bo'lganini tushundi, ko'z milklarining cheti tirishib, qizarib ketdi*” (“Bahor qaytmaydi”, 10-b). Ushbu gapda keltirilgan *milkklarining cheti* birikmasi yuqoridagi fikrga dalil bo'lib, tobe a'zo(*milkklarining*) tarkibida qo'llanilgan hokim a'zo(*cheti*) tarkibidagi –i egalik shaklini kelishini talab qilib kelmoqda.

So'z birikmasida bog'lanish usullaridan biri bo'lgan bitishuvda birikkan a'zolarining o'zaro aloqasi, asosan, tartib va ohang vositasida amalga oshadi. Masalan: “*Hamma yagona bir tashvish - kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo'ldi*” (“Bahor qaytmaydi”, 7-b). Bitishuv bog'lanishli birikmalar: yagona tashvish – sifat+ot; bir tashvish – son+ot kabilar.

Moslashuv – so'z birikmasining ikki tomonlama shakllangan turi bo'lib, bunda hokim a'zo tobe a'zoga muvofiq egalik shaklini, tobe a'zo hokim a'zoga muvofiq qaratqich yoki bosh kelishik shaklini oladi[2,332]. Masalan: *do'stining ovozi, kuz tashvishi* (“Bahor qaytmaydi”, 7 – 10-b) kabilar.

Yana bir bog'lanish usuli boshqaruv sanaladi. Bunday bog'lanishda bir so'z boshqa so'zning talabi bilan o'z formasini o'zgartiradi: tobe so'z hokim so'zga qarab ma'lum formaga kiradi. Masalan: *darsga bormoq*(fe'lli boshqaruv); *Nodiradan uzun*(sifat boshqaruvi); *o'qishda birinchi*(son boshqaruvi); *o'qigan bola*(otli boshqaruv).

So'z birikmasining tuzilishi, a'zolarining o'zaro munosabatini o'rganish jarayonida birikishning ichki imkoniyatlari ochiladi. So'z birikmasida bog'lanish a'zoldan birining

faolligida emas, balki har ikki a'zoning, avvalo, ma'noviy so'ngra shakliy va joylashuv jihatdan moslashishi asosida yuz beradi[2,332]. Masalan: *doskani artmoq* – SHMJ(shakliy+ma'noviy+joylashuv).

Ma'noviy omil deganda so'zlarning bog'lanishi uchun muhim sanalgan lug'aviy ma'nosi, qaysi turkumga xosligi tushuniladi. Masalan: *kunjut yog'i* birikmasida *kunjut* so'zining ot so'z turkumiga mansubligi, o'simlik nomi ekanligi, *yog'* so'zining esa o'simliklardan olinadigan iste'mol mahsuloti ma'nosini ifodalashi ma'noviy omil hisoblanadi[4,26].

Shakliy omil deganda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan aloqamunosabat shakllari tushuniladi. So'z birikmadagi qaysi a'zoni shakllantirishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) Tobe qismga xos (kelishik, sifatdosh, ravishdosh ko'rsatkichi va ko'makchi);
- 2) hokim qismga xos (egalik, nisbat, kesimlik ko'rsatkichi). Masalan: *narsaga quloq soladi* – SHMJ(shakliy+ma'noviy+joylashuv)[4,33].

Joylashuv omili so'zlarning erkin joylashuvi va birikma tarkibida jipslashuvidan iborat. Erkin joylashuv deganda so'z birikmasidagi tobe va hokim a'zoni bir-biridan ajratish, shuningdek ular orasiga boshqa bo'laklarni kiritish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan: uyga ketmoq, mavzuni tushuntirmoq birikmalarida erkin joylashuv imkoniyati bo'lib, ularni uyga yugurib ketmoq, mavzuni yaxshi tushuntirmoq tarzida qilib o'zgartirish mumkin bo'ladi. Jipslashuv deganda tobe va hokim a'zoni bir-biridan ajratish mumkin bo'lmaydigan jarayonga aytiladi. Masalan: Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi(O'. Hoshimov, "Bahor qaytmaydi" 7-b). Ushbu gapdagi Bo'ston qishlog'i birikmasi jipslashuv bog'lanishiga misol bo'la oladi. Shuningdek, yuqoridagi har ikkala bog'lanish omilida ham so'z birikmasi tarkibidagi a'zolar o'rnini almashtirib qo'llash imkoniyati mavjud. Masalan: shahrimizning binolari – binolari shahrimizning – erkin joylashuv; tilla zirak – zirak tilla – jipslashuv. Ushbu birikmalarda, avvalo, erkin joylashuvli birikmaning o'rnini o'zgartirganimizda ham hech qanday ma'noviy o'zgarish yuz bermadi, oldingi ma'no saqlandi. Keyingi, ya'ni jipslashuvli birikmada a'zolar o'zni bir-biri bilan almashtirilganda birikma fikr tugalligiga ega bo'lib, gapga aylandi va ma'noviy jihatdan o'zgardi.

So'z birikmalariga oid nazariyalarga tayangan holda, O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asari tarkibidagi so'z birikmalarining bog'lanish usuli va omili bo'yicha tahlili quyidagicha amalga oshirildi:

"Qishloq ustida kuzning atlas libosi lovillab yonadi, ufqqa tutashib ketgan polizlar, tokzorlar goh qizg'ish, goh qahrabo rangda tovlanadi. Olisda, osmonning yer bilan tutashgan joyida olovli bir hovur ichida quyosh botib borardi"(15-b).

1. Qishloq ustida – bog'lanish usuli – moslashuv(otli); bog'lanish omili – MSHJ/jipslashuv;

2. Kuzning libosi – bog'lanish usuli – moslashuv(otli); bog'lanish omili – MSHJ/erkin;
3. Lovillab yonadi – bog'lanish usuli – boshqaruv(fe'lli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
4. Atlas libosi – bog'lanish usuli – bitishuv(otli); bog'lanish omili – MSHJ/jiplashuv;
5. Ufqqa tutashib – bog'lanish usuli – boshqaruv(fe'lli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
6. Tutashib ketgan polizlar – bog'lanish usuli boshqaruv(otli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
7. Qizg'ish rangda – bog'lanish usuli – bitishuv(otli); bog'lanish omili – MSHJ/erkin;
8. Rangda tovlanadi – bog'lanish usuli – boshqaruv(fe'lli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
9. Olisda botib boradi – bog'lanish usuli – boshqaruv(fe'lli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
10. Yer bilan tutashgan – bog'lanish usuli – boshqaruv(fe'lli); bog'lanish omili – SHMJ/erkin;
11. Olovli hovur – bog'lanish usuli – bitishuv(otli); bog'lanish omili – MSHJ/erkin;

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, sintaktik qurilishning ikki asosiy tipi mavjud: gap va so'z birikmasi. Har ikkalasi ham sintaksisning asosiy tekshirish obyekti sanaladi. Har bir so'z birikmasining o'ziga xos bog'lanish tabiati mavjud bo'ladi. Ular orqali gap mazmuni to'raligicha anglashilib, kitobxonga ochib beriladi. Shuningdek, so'z birikmalar tarkibidagi a'zolarining bir-biri bilan bog'lanishida ham shakliy, ham ma'noviy, ham joylashuv omillari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ular orqaligina tuzilgan so'z birikmalari mantiqiy jihatdan asosli va to'g'ri bo'ladi. "Bahor qaytmaydi" asari tarkibidagi so'z birikmalari tahlili jarayonida ham so'z birikmalarining o'ziga xos bog'lanish darajalariga guvoh bo'lindi. Bu ham asar tartib berayotgan ijodkorning mahorat darajasini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Hoshimov. Bahor qaytmaydi(qissa). – T: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2022. - 160 b.
2. R. Sayfullayeva., B. Mengliyev., L. Raupova., M. Qurbonova., M. Abuzalov., D. Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi", 2020.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II jild. Sintaksis. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. – T, 1996.
4. M. Sharipov. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi.

– Т.: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1978.

5. Xidirova, I., & Jo‘rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF KINSHIP NAMES USED IN ANCIENT TURKISH DICTIONARIES. *Modern Science and Research*, 2(4), 716-719.
6. Jo‘rayeva, M. (2023). TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO‘LLANILGAN EGASI UMUMLASHGAN VA SHAXSI NOMA’LUM GAPLARNING LINGVISTIK TAHLILI. " *Science Shine*" *International scientific journal*, 1(2).